

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SUG‘URTA FAKULTETI

“SUG‘URTA ISHI” KAFEDRASI

SHOVKATOV NODIRJON NE‘MATJON O‘G‘LI

**“BAXTSIZ HODISALARDAN SUG‘URTALASH MEXANIZMI VA
UNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI”**

5231200–“Sug‘urta ishi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish
uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Sug‘urta ishi” kafedrası mudiri

_____ i.f.n., dotsent I.K.Ochilov
“ _____ ” _____ 2015

Ilmiy rahbar _____ k.o‘q. I.G‘.Kenjaev

“ _____ ” _____ 2015

TOSHKENT-2015

MUNDARIJA		betlar
KIRISH.....		3
I BOB. BAXTSIZ HODISALARDAN SUG‘URTALASHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.....		6
1.1	Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug‘urtalashni kelib chiqish tarixi	6
1.2	Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug‘urtalashning huquqiy asoslari.....	13
1.3	Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug‘urtalashning xorij tajribasi.....	20
II BOB. O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDA FUQOROLARNI BAXTSIZ HODISALARDAN SUG‘URTALASHNING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAHLILI («Kafolat» DASK misolida).....		25
2.1	Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart asosida sug‘urtalashning hozirgi holati va uni tahlili	25
2.2	Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug‘urtalashda sug‘urta mukofotlari va qoplamalarini qiyosiy tahlili.....	31
III BOB. BAXTSIZ HODISALARDAN SUG‘URTALASH MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....		44
3.1	Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash mexanizmini rivojlantirish masalalari.....	44
XULOSA.....		49
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....		54

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. So‘ngi yillarda respublikamizda sug‘urta xizmatlari bozorini taraqqiy ettirish, tarmoqda bozor mexanizmlarini keng ko‘lamda joriy etish yuzasidan e‘tirof etishga arzigulik ishlar amalga oshirildi. Ya‘niy 2008 yil 21 aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”, 2009 yil 17 martda “Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi Qonunlarning qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishi tufayli jamiyatda sug‘urtaning nufuzi oshdi. Shu bilan bir qatorda 2010 yil 26 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori sug‘urta sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Mazkurga qarorga asosan, 2011-2015 yillarda sug‘urta sohasini rivojlantirish bo‘yicha rejalar belgilab olindi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, ulardan eng asosiysi respublika mintaqalarida sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalasidir. Shuningdek Prezidentimiz I.A.Karimov ta‘kidlaganlaridek, 2014 yilda ijtimoiy sohada ham chuqur sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi. Bu sohaning barqaror faoliyatini ta‘minlash va rivojlantirishga davlat byudjeti jami xarajatlarining qariyb 60 foizi yo‘naltirilmoqda¹.

Shu bois fuqorolar turli tabiiy ofatlar sug‘urtalash bo‘yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek O‘zbekiston milliy sug‘urta bozorida ham umumiy sug‘urta tarmog‘i bo‘yicha ko‘rsatiladigan sug‘urta xizmatlar ko‘lami kengaymoqda. Shunday bo‘lsada mingtaqalarda fuqorolar turli tabiiy ofatlar sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda ba‘zi bir muammolar hali hanuzgacha davom etmoqda. Mazkur muammolarni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi.

bartaraf etishda va uni echishda biz tanlagan bitiruv malakaviy ishi mavzusi dolzarb ahamiyatga egadir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishdan maqsad – Baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash mexanizmi oʻrganish va uni amaldagi holatini tahlil qilish, Baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash mexanizmi rivojlantirish iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishi oldiga qoʻyilgan maqsadga erishish uchun ushbu ishda quyidagi vazifalarni hal etish nazarda tutilgan:

- Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sugʻurtalashni kelib chiqish tarixini oʻrganish;
- Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sugʻurtalashning huquqiy asoslarini oʻrganish;
- Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sugʻurtalashning xorij tajribasini oʻrganish;
- Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart asosida sugʻurtalashning hozirgi holati va uni tahlil etish;
- Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sugʻurtalashda sugʻurta mukofotlari va qoplamalarini qiyosiy tahlil etish;
- Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash mexanizmini rivojlantirish masalalari yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti. Ushbu ishning predmeti boʻlib Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash va uni rivojlanishida mavjud boʻlgan muammolar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti. Baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash mexanizmini rivojlantirish masalalari («Kafolat» DASK AJ misolida).

Bitiruv malakaviy ishining nazariy - amaliy ahaviyati. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning iqtisodiyot sohasidagi asarlari, iqtisodiyotni isloh qilish, shu jumladan sugʻurta sohasi boʻyicha qabul qilingan Prezident farmonlari, qonunchilik hujjatlari, xorijlik va mamlakatimiz olimlarining sugʻurta yoʻnalishi boʻyicha eʼlon qilgan ilmiy maqolalari va

monografiyalari ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda dasturamal vazifasini bajardi. Shuningdek, tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining va baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha «Kafolat» DASK AJ ni amaliy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi tarkiban kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarb jihatlarini asoslovchi fikrlar hamda bitiruv malakaviy ishi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar keltirilgan. Birinchi bobda fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashni kelib chiqish tarixi va uni amalga oshirishning huquqiy asoslariga hamda fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning xorij tajribasi oid fikrlar o'z ifodasini topgan. Ikkinchi bobda fuqorolarni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart asosida sug'urtalashning hozirgi holati va uni sug'urtalashda sug'urta mukofotlari va qoplamalarini qiyosiy tahlili keltirilgan. Uchinchi bobda fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash mexanizmini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida shakllantirilgan xulosalar asosida ishlab chiqilgan takliflar o'z aksini topgan. Ishning umumiy hajmi 60 betdan iborat.

I BOB. BAXTSIZ HODISALARDAN SUG'URTALASHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1 Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashni kelib chiqish tarixi

Ma'lumki, dastlab fuqorolar turli tabiiy ofatlar va boshqa oldindan ko'rib bo'lmaydigan baxtsiz hodisalar ro'y berishini oldini olish maqsadida xudolarga sig'inishgan. Ya'ni stixiyali baxtsiz hodisalarning ro'y berishi, bu tabiiy hol ekanligini anglagan fuqorolar quldorlik davridayoq, yong'in, qurg'oqchilikdan saqlanish uchun natura shaklidagi sug'urta fondlarini tashkil etishgan.

Shuningdek tarixiy hujjatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, unga ko'ra notijorat sug'urtaning dastlabki shakllari, eramizdan 2000 yil oldin Vavilon podshohi Xammurapi qonunlarida, shuningdek, Fors ko'rfazi, Qadimgi Gretsiya va Misr, Qadimgi Rimdagi savdogarlarning o'zaro tuzgan bitimlarida o'z aksini topgan. Bu bitim shartlariga muvofiq, umumiy karvon safida savdo qiluvchi savdogarlardan birortasi stixiyali hodisalar yoki qaroqchilar hujumi oqibatida zarar ko'rsa, bu zararlar boshqa savdogarlar tomonidan qoplanishi belgilangan. Bu davrlarda maxsus sug'urta tashkilotlari bo'lmagan va sug'urta badallari to'lanmagan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijasida sug'urtaning mazmuni takomillashib, uning yangi turlari paydo bo'lgan. Xususan, Qadimgi Rimda kasbiy (savdogarlar, hunarmandlar, harbiylar) va diniy belgilarga ko'ra, o'z ustavlariga ega bo'lgan kollegiya, ittifoqlar bo'lgan. Kollegiya yoki ittifoq a'zolari sug'urta badallarini to'lashgan hamda ustavda qayd etilgan shartlarda ko'rilgan zararni qoplash uchun qoplamalar olish huquqiga ega bo'lgan. Qadimgi Rimda birinchi bizning eramizdan 133 yil oldin Lanuviylar kollegiyasi tashkil topgan va faoliyat yuritgan. Ushbu lanuviylar ustaviga muvofiq, unga a'zo bo'ladigan shaxslar 100 sistern miqdorida kirish badalini to'lashgan. Oylik badal summasi – 5 assani tashkil etgan. Mabodo, kollegiya a'zosi vafot etsa, uning merosxo'riga 300 sisterni ajratilgan. Agar, kollegiya a'zosi o'zini-o'zi o'ldirsa yoki vafot etish arafasida oylik badallar to'lash muddati 6-10 oy

cho'zilgan bo'lsa, bunday holatda uning merosxo'rlariga sug'urta summasi to'lanmagan.

Shaxsiy sug'urta – baxtsiz hodisalar yoxud tabiiy hodisalar ro'y berishi oqibatida fuqarolarning hayoti va sog'ligiga shikast etkazilishi bilan bog'liq ularning mulkiy manfaatlarini himoyalashga qaratilgan sug'urtaning mustaqil tarmog'i. Shaxsiy sug'urta fuqarolar boshiga kulfat tushganda ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning muhim vositasi hisoblanadi. SHu ma'noda, shaxsiy sug'urta ijtimoiy himoyaning hayotiy tajribada sinalgan ishonchli shaklidir.

Shaxsiy sug'urtaning, xususan uning ajralmas bo'g'ini bo'lgan fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtasining joriy etilishi bir necha asrlik tarixga ega. 1541 yilda Evropada mavjud bo'lgan dengiz huquqi qoidalariga ko'ra, kema egalari shu kema kapitanlarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalashlari shart bo'lgan.

1699 yil Angliyada shaxsiy sug'urta bilan shug'ullanadigan dastlabki sug'urta tashkiloti barpo etilgan va u avvalo beva ayollar hamda etim bolalarni sug'urtasini amalga oshirgan. Bu jamiyatning nomi "Ekvatebl" deb atalgan. XVIII asrda esa Germaniyada suyak sinishi holatlaridan himoyalash bo'yicha o'zaro yordam uyushmalari tashkil etilgan. 1849 yili Angliyada temir yo'llarda baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha dastlabki «Railway Death Rassengers Company» nomli sug'urta kompaniyasi tuzildi.

Shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urtalanuvchi sifatida har qanday yuridik va jismoniy shaxs bo'lishi mumkin.

Shaxsiy sug'urta – bu inson hayotiga, uning mehnat qobiliyati va salomatligiga tahdid soladigan turli xavf-xatarlardan himoyalanishning muhim shakli.

Hozirgi paytda shaxsiy sug'urta sug'urta faoliyatining yirik tarmog'i sifatida jahon amaliyotida keng qo'llaniladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda shaxsiy sug'urta turlari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari boshqa sug'urta turlari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlariga nisbatan yuqori

salmoqqa ega. Masalan, AQSHda jami yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmida shaxsiy sug'urtaning hissasi 50,0 foizdan yuqoridir.

Shuningdek o'tgan asrning boshlarida hozirgi O'zbekiston hududida Rossiya sug'urta tashkilotlarining vakolatxonalari faoliyat ko'rsatgan va ular aholiga shaxsiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatishgan. Masalan 1917 yildan 1990 yilgacha mamlakatimizda shaxsiy sug'urtalash ishlari davlat sug'urta organlari (*Gosstrax*) tomonidan amalga oshirilgan. Ana shu davrda sug'urta shartlari, qoidalari va tariflari markazda-Moskvada ishlab chiqilar va aksariyat hollarda mahalliy shart-sharoitlar va xususiyatlar hisobga olinmas edi.

1991 yilda O'zbekistonning o'z siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini qo'lga kiritishi hayotimizning barcha jabhalari qatorida sug'urta sohasini ham bozor munosabatlari tamoyillariga mos ravishda rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Shu bilan birga mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiyotda ro'y bergan keskin o'zgarishlar qisqa muddat bo'lsada pulning qadrsizlanishiga, pirovardida, aholi turmush darajasining pasayib ketishiga olib keldi. SHubhasiz, bu holat shaxsiy sug'urtaning aholi o'rtasidagi ommaviyligiga putur etkazdi. Natijada, bu sug'urta turlari bo'yicha sug'urta shartnomalari soni va sug'urta mukofotlari miqdori kamayib ketishiga olib keldi. Masalan, 1993 yilda shaxsiy sug'urtaning alohida turi bo'lgan hayot sug'urtasi bo'yicha jami 1770356 dona shartnoma tuzilgan holda bu ko'rsatkich 1994 yilda 406864 donaga kamaygan.

Bunday salbiy vaziyatni oldini olish va aholining shaxsiy sug'urtaga bo'lgan ishonchini tiklash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining omonotlardagi va davlat sug'urtasi bo'yicha pul mablag'larini indeksatsiya qilish to'g'risida" 1995 yilning 20 dekabrda PF № 1327-son Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonga ko'ra, 1996 yildan boshlab aholining 1992 yil 1 yanvargacha bo'lgan holatiga ko'ra va 1996 yil 1 yanvargacha amalda bo'lgan Davlat sug'urta bosh boshqarmasi muassasalarida turgan hayotni, bolalarni sug'urta qilish, nikoh kunida beriladigan uzoq muddatli sug'urta shartnomalari to'lovlarini bosqichma-bosqich indeksatsiya qilish maqsadga muvofiq deb

topildi. SHu bilan bir qatorda davlat sug'urta muasasalari tomonidan 1996 yilning 1 yanvaridan 1 iyuligacha bo'lgan muddatda fuqarolarning 400,0 mingdan ziyod shartnomalari indeksatsiya qilindi. SHu bilan bir qatorda Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli qaroriga asosan «Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida» Nizom ishlab chiqildi. Mazkur Nizomga asosan sug'urta ikkita tarmoqqa ajratildi. Ular hayotni sug'urta qilish va umumiy sug'urta tarmog'iga. Hayotni sug'urta qilish tarmog'i o'z ichiga quyidagi klasslarni oladi (1-jadvalga qarang),

1-jadval

Hayotni sug'urta qilish tarmog'i²

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
I klass	Hayot va annuitetlar	Quyidagi hollarda sug'urta summalari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami: - sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati tamom bo'lgungacha yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi; - sug'urta qilinuvchining vafot etishi; shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar (annuitetlar), III klass bundan mustasno
II klass	Nikoh va tug'ilish	Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq

² Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 27 ноябрдаги 413-сон қарори маълумотлари асосида тайёрланди.

		muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami
III klass	Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish	Umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda hayotni sug'urta qilish turlari jami
IV klass	Sog'liqni sug'urta qilish	Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga etguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta summolari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami. Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda shuni ta'kidlab o'tish joyizki, mazkur tarmoq asosida sug'urtalovchi tegishli litsenziya olishi uchun kamida 2014 yil 1 iyuldan boshlab, 2,0 mln.evro³ ekvivalent summada ustav kapitali miqdorini o'rnatishi yoki yangilashi kerak. Shu bilan bir qatorda umumiy sug'urta tarmog'i o'z ichiga quyidagi klasslarni oladi (2-jadvalga qarang).

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 31 майдаги ПК-1544-сонли қарори маълумотлари асосида

Umumiy sug'urta tarmog'i⁴

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
1-klass	Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi, yoxud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud; v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
2-klass	Kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish	Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda

⁴ Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 27 ноябрдаги 413-сон қарори маълумотлари асосида тайёрланди.

2-jadvalda umumiy sug'urta tarmog'ining klasslari bo'yicha ma'lumotlar o'z aksini topgan. Mazkur jadvalga asosan umumiy sug'urta tarmog'i bo'yicha 17 klass mavjud bo'lib, u hayotni sug'urta qilish tarmog'idagi klasslardan bir muncha farq qiladi; sug'urta muddati va sug'urta ob'ekti bilan hamda sug'urta tariflarini yuritilishi bilan farqlanib turadi desak mubolag'aga o'rin yo'q. SHu bilan bir qatorda shuni ta'kidlash joyizki, ushbu tarmoqning klasslari bo'yicha litsenziya olishi uchun 2014 yil 1 iyuldan boshlab, 1,5 mln.evro⁵ ekvivalent summada ustav kapitalini shakllantirish kerak. SHu bilan birga sug'urta sohalari bo'yicha majburiy sug'urtalash bo'yicha 3,0 mln.evro va faqat qayta sug'urtalash bo'yicha esa 6,0 mln.evro ekvivalent summada eng kam ustav kapital miqdorini shakllantirishlari kerak.

Mazkur jadvalni keltirilgan 1-klass Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish deb nomlanib, unda baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi natijasida etkazilgan zararlar hamda baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, shu bilan birga kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlanadi. 2-klass bo'yicha kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish bo'lib, unda sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda amalga oshiriladi.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 31 майдаги ПҚ-1544-сонли қарори маълумотлари асосида

1.2 Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning huquqiy asoslari

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng milliy iqtisodiyotda tub o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan sug'urta tizimida ham iqtisodiy islohotlar natijasida sug'urta sohasida rakobat asosida faoliyat ko'rsatadigan turli mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlari vujudga keldi. Sug'urta bozorini barpo etish va uni barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan iqtisodiy va huquqiy asoslar yaratila boshladi.

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy sug'urtani amalga oshirishning huquqiy asoslari Fuqarolik kodeksining 921-moddasida aks ettirilgan. Unga ko'ra, shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog'ligiga zarar etkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqt-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi. SHuningdek, kodeksda shaxsiy sug'urta shartnomasi kimning foydasini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxs sug'urta pulini olish huquqiga ega bo'ladi, deb ko'rsatilgan.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishiladi:

- sug'urtalangan shaxs to'g'risida;
- sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;
- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Shu bilan birga taraflarning kelishuviga asosan shartnoma shartlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Agar sug'urta shartnomasi

sugʻurta qildiruvchi, sugʻurtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarni oʻz ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari oʻrniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qoʻllaniladi.

Sugʻurtalanuvchining hayoti, sogʻligʻi, mehnat qobiliyati bilan bogʻliq mulkiy manfaatlari shaxsiy sugʻurtaning obʻekti hisoblanadi. Sugʻurtalovchi va sugʻurtalanuvchilar hamda sugʻurtalangan shaxslar shaxsiy sugʻurta subʻektlaridir.

Shaxsiy sugʻurta, odatda, fuqarolarni quyidagi xavf-xatarlardan himoyalashini nazarda tutadi:

- sugʻurtalanuvchining yoki sugʻurtalangan shaxsning vafot etishi;
- mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yoʻqotishi;
- nafaqa yoshiga etishi bilan fuqaroning faol mehnat faoliyatini tugashi.

Yuqorida qayd etilgan hamma holatlarda sugʻurta hodisasini roʻy berishi sugʻurtalanuvchining yoki sugʻurtalangan shaxsning daromadini kamayishiga sabab boʻladi.

Ilmiy-iqtisodiy adabiyotlarda shaxsiy sugʻurta turlicha tasniflanadi. Mutaxassislar oʻrtasida keng tarqalgan fikrlarga koʻra, shaxsiy sugʻurta 2 ta kichik tarmoqqa boʻlinadi:

- hayot sugʻurtasi;
- sogʻliqni sugʻurtalash;

Sogʻliqni sugʻurtalash, oʻz navbatida, 2 ta guruhga boʻlinadi:

- baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash;
- tibbiy sugʻurta.

Shaxsiy sugʻurtani hayot sugʻurtasiga va sogʻliqni sugʻurtasiga boʻlinishiga asosiy sabab sugʻurta summalarini jamgʻarilib borilishidir. Hayot sugʻurtasi uzoq muddatli boʻlib, unda shartnoma boʻyicha belgilangan sugʻurta summasi har yili jamgʻarilib boradi.

Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sugʻurtalashda sugʻurta summolari jamgʻarilmaydi, muddati 1 yildan oshmaydi.

2002 yilning 28 mayidan e'tiboran "Sug'urta faoliyati to'g'risida" qonunning qabul qilinishi bilan sug'urta 2 ta tarmoqqa bo'lindi:

- ✓ hayot sug'urtasi;
- ✓ umumiy sug'urta.

Mazkur qonunga asosan sug'urtalovchilarning faoliyati sug'urtaning qaysi tarmog'iga ixtisoslashganligiga qarab alohida litsenziyalanadigan bo'ldi. Hayot sug'urtasini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan sug'urtalovchilar umumiy sug'urta turlarini o'tkazishga haqli emas yoki aksincha.

Shaxsiy sug'urta ixtiyoriy va majburiy shakllar asosida turlarga bo'linadi va amalga oshiriladi.

Shaxsiy sug'urtaning ixtiyoriy shaxsiy sug'urta turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- hayot sug'urtasi;
- fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash;
- fuqarolarning sog'lig'ini va kasalliklardan sug'urtalash;
- fuqaroni ma'lum yoshgacha etishish sug'urtasi;
- vafot etish holatidan uzoq muddatli sug'urta;
- tibbiy sug'urta;
- chet elga ketuvchilarni kasalliklardan sug'urta;
- maktab o'quvchilarini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash.

Shu bilan bir qatorda shaxsiy sug'urtani majburiy tarzda amalga oshiriladigan turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yo'lovchilarni baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urtalash;
- soliq organlari xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasi;
- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo'mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug'urtasi.

Shaxsiy sugʻurtaning baʼzi bir majburiy shakldagi turlari va majburiy davlat sugʻurtasini 2003 yil 1 yanvardan boshlab “Oʻzbekinvest” eksport-import milliy sugʻurta kompaniyasi oʻtkazib kelmoqda. Ushbu sugʻurta turlari boʻyicha sugʻurta tarifi bir sugʻurtalanuvchiga bir yilga eng kam oylik ish haqining 20 foizi miqdorida belgilangan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan sugʻurta tashkilotlari, asosan quyidagi sugʻurta turlarini amalga oshirib kelmoqdalar:

- baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash;
- ixtiyoriy tibbiy sugʻurta va kasal boʻlish holatidan sugʻurta;
- chet elga ketayotgan shaxslarni sugʻurtasi;
- hayot sugʻurtasi.

Yuqorida qayd etilgan sugʻurta turlari ichida baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash keng tarqalgan boʻlib, ular “Oʻzbekinvest” EIMSK, “Oʻzagrosugʻurta” va “Kafolat” davlat-aksiyadorlik sugʻurta kompaniyalari, kabi bir qator sugʻurta tashkilotlari tomonidan juda keng koʻlamda ishlar amalga oshirilmoqda.

2015 yil 1 may holatiga koʻra mamlakatimiz sugʻurta bozorida 31 ta sugʻurta tashkiloti faoliyat koʻrsatayotgan boʻlsa, ularning 29 tasi umumiy tarmogʻi boʻyicha qolgan 2 tasi hayot sugʻurta tarmogʻi boʻyicha sugʻurta xizmatlarini koʻrsatib kelmoqda. Mana shu umumiy sugʻurta tarmogʻida faoliyat koʻrsatayotgan sugʻurta kompaniyalarining aksariyat qismi baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash boʻyicha tegishli litsenziyalarga ega.

Sugʻurta bozorida mijozlarni jalb etish boʻyicha raqobat boʻlganligi tufayli ixtiyoriy shaxsiy sugʻurta turlari boʻyicha tarif stavkalari turlichadir. Masalan, “Oʻzbekinvest” kompaniyasida 20-25 yoshlardagi shaxslarni 100,0 ming soʻmga sugʻurtalash uchun tarif stavkasi ana shu sugʻurta summasiga nisbatan 1,125 foizni, yoshi 55-60 da boʻlgan fuqarolar uchun esa tarif stavkasi 1,575 foizni tashkil etadi. “Oʻzagrosugʻurta” sugʻurta kompaniyasida maktab oʻquvchilarini baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sugʻurtalash boʻyicha tarif stavkasi sugʻurta summasiga nisbatan 0,2 foiz miqdorida belgilangan.

“Kafolat” davlat-aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasida talabalarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug‘urtasi bo‘yicha tarif stavkasi sug‘urta summasiga nisbatan 0,5 foizni tashkil etadi.

Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug‘urtalashda sug‘urta shartnomasini tuzishdan oldin sug‘urta tashkiloti vakili sug‘urtalayotgan shaxslarni fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash qoidalar bilan tanishtirishi lozim. Mazkur sug‘urta turi bo‘yicha fuqarolarni baxtsiz hodisa ro‘y berish natijasida sog‘lig‘i va hayotini saqlash bilan bog‘liq manfaat sug‘urta ob‘ekti hisoblanadi. Sug‘urtalovchi, odatda, asab va ruxiy kasallikka duchor bo‘lgan, falaj, ko‘zi ojiz shaxslar, eshitish qobiliyati zaif bo‘lgan va nogiron shaxslar bilan sug‘urta shartnomasini tuzmaydi.

Sug‘urtalangan shaxsning hayotiga va sog‘lig‘iga quyidagi baxtsiz hodisalarni ro‘y berishi natijasida shikast etganda va tasdiqlanganda sug‘urta summolari berilishi mumkin:

- jarohat olganda;
- suyaklarni sinishi, chiqishi;
- ichki organlarni zararlanishi;
- kuyishi;
- teri qatlamlarini sovuq urishi;
- elekt toki ta’sirida jarohatlanishi;
- kimyoviy moddalar va zararli o‘simlik ta’sirida zararlanishi;
- tish sinishi.

Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan holatlar natijasida o‘lim xolati yuz berganda xam sug‘urta summasi to‘lanadi.

Quyidagi hodisalarni ro‘y berishi oqibatida sug‘urtalangan shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga shikast etkazilsa yoxud o‘limga olib kelsa sug‘urta summasi to‘lanmaydi:

- yadro portlashi;
- radiatsiya va nurlanish;

○ sug'urtalangan shaxsning atayin hatti-harakati natijasida baxtsiz hodisalar yuz berganda, o'z joniga qasd qilganda va jinoiy harakatlar natijasida ro'y berishi.

Sug'urta mukofoti sug'urta tashkilotining hisob-kitob raqamiga kelib tushgandan so'ng u shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida fuqarolarga sug'urta polisini berishi shart. Agar sug'urta polisi yo'qotilgan taqdirda sug'urta tashkiloti sug'urtalangan shaxsga uning dublikatini beradi.

Sug'urtalanuvchilarning huquqlari:

➤ sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtalangan shaxs sug'urta tashkilotidan sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar olishi;

➤ sug'urta polisi yo'qotilganda uning dublikatini olish.

Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda sug'urtalangan shaxslar yana quyidagi huquqlarga ega bo'lishi mumkin:

➤ sug'urta summasini olishda nizolar paydo bo'lganda mustaqil ekspertni jalb etish;

➤ sug'urtalanuvchi bilan kelishilgan holda amaldagi sug'urta shartnomasiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish;

➤ sug'urtalovchi bilan kelishgan holda sug'urta shartnomasini muddatdan oldin bekor qilish.

Sug'urtalanuvchi majburiyatlari:

➤ sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddat va shartlarda sug'urta mukofotlarini to'lash;

➤ sug'urtalangan shaxslarga sug'urta shartnomasi shartlari to'g'risida ma'lumotlar berish.

Sug'urtalovchining huquqlari:

➤ sug'urta hodisalari sug'urtalovchi tomonidan tan olinmaganda sug'urta summalarini to'lamaslik;

➤ sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatda sug'urta mukofoti to'lanmasa sug'urta shartnomasini bekor qilish.

Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- fuqarolarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug'urtalash qoidolari va sug'urta shartnomasi shartlari bilan sug'urtalanuvchini tanishtirish;
- sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddatda sug'urta polisini berish;
- sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta summasini to'lash;
- sug'urta summasini to'lashdan voz kechilganda, u holda 10 kun muddatda sug'urtalanuvchiga yozma ravishda xabar berish.

Sug'urta hodisasi ro'y berganda bu haqida sug'urtalangan shaxslar qisqa muddatda sug'urtalovchiga xabar berishi lozim. Baxtsiz hodisa ro'y berganda sug'urtalangan shaxslar sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- sug'urta polisi;
- davolash profilaktika muassasidan baxtsiz hodisa natijasida sug'urtalangan shaxsning davolanganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma.

Zaruriyat bo'lganda sug'urtalovchi sug'urta summasini to'lash masalasini hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlarni so'rashga ham haqli.

Baxtsiz hodisalar ro'y berish natijasida o'lim hodisasi ro'y berganda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- sug'urta polisi;
- FXDYO bo'limidan o'lim holati ro'y bergani to'g'risida ma'lumotnoma;
- merosxurlik huquqini tasdiqlovchi hujjat;
- agar o'lim hodisasi yo'l-transporti natijasida ro'y bergan bo'lsa, yo'l harakati xavfsizligi organidan olingan ma'lumotnoma;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat.

Sug'urtalovchi zarurat bo'lganda yuqoridagi hujjatlardan tashqari boshqa hujjatlarni so'rashi ham haqlidir.

Individual shaxslarni baxtsiz xodisalardan sug'urtalash holati quyidagi ko'rinishlarga ega:

- sug'urtalangan shaxsning mehnatga layoqati vaqtincha yo'qotilishi;
- sug'urtalangan shaxsning mehnatga layoqati umrbod yo'qotilishi;

- baxtsiz hodisa natijasida sug'urtalangan shaxsning vafot etishi.

Sug'urta shartnomalari muddatlari turli xil bo'lishi mumkin: bir qancha soatga, bir qancha kundan bir yilgacha, bir necha yilga, umrbod yoki ayrim ish va tashrif davomiga. Baxtsiz hodislardan sug'urtalashda sug'urta qoplamasi to'lash vaqti ham har xil bo'lishi mumkin.

Baxtsiz hodisa sug'urta shartnomasi muddatida ro'y bersa, yoki sug'urta shartnomasi muddati tugagandan keyin keyin bir yil davomida ro'y bersa sug'urta qoplamasi berilishi mumkin.

1.3 Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashning xorij tajribasi

Xalqaro sug'urta bozorida hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofoti etakchi xisoblanadi. Hayot sug'urtasi umumiy sug'urta mukofotlarini ichida 85%ni tashkil qiladi. Tibbiy va xayot sug'urtasiga sarflangan xarajatlar shaxsiy sug'urta xarajatlarining 60-70%ni tashkil qiladi. Bu o'rtacha rivojlangan davlatlarda 1000 AQSH dolloridan 4000 AQSH dollarigacha tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasida shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlarining aksariyat qismi tsh beruvchilarning majburiy sug'urtasidan kelib tushadi.

Xayot sug'urtasi nafaqa sug'urtasi bilan birgalikda milliy iqtisodning rivojlanishi darajasini asosiy ko'rsatkichi xisoblanadi. Masalan, Evropa Ittifoqi davlatlarida, AQSHda va YAponiyada xayot sug'urtasiga ixtisoslashgan, axolining mablag'larini uzoq muddatli konsentratsiya qiluvchi sug'urta tashkilotlarining investitsiya imkoniyatlari banklarning invesitsiya imkoniyatlaridan bir muncha oshadi.

Shaxsiy sug'urtada sug'urta summasining miqdori sug'urtalanuvchilarning moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq. Inson xayoti bo'yicha sug'urtada eng kata sug'urta summasi, 1971 yilda 14mln. AQSH dollariga tenglashgan. Ushbu sug'urta summasi Kanadalik fermer Jorj Myullerga tegishli bo'lgan. U 1970 yil 14 noyabrda o'ziga tegishli mulkni bezorilardan ximoya qilishda o'lgan.

Rivojlangan davlatlarda shaxsiy sug'urta o'ndan etti kishining oilaviy byudjeti asosiy moliyaviy manba xisoblanadi. Masalan, AQSHda XXI asr boshlarida 80% axolii shaxsiy sug'urta polislariga ega bo'lgan.

Shaxsiy sug'urta sug'urtaning aloxida tarmog'i sifatida Evropada XVII-XVIII asrlarda paydo bo'lgan. Dastlab u dengiz sug'urtasiga qo'shimcha sifatida shakllangan. Kemalar va yuklarni sug'urtalash bilan birgalikda kema kapitanlarining xayoti xam sug'urtalana boshladi.

XVII asr boshlarida, «London tug'ulish va o'lim to'g'risidagi ma'lumotlar» nomli kitob tashrqilindi. Bir vaqtda «muxtojlariga yordam beruvchi xayot sug'urtasi jamiyati» tashkil qilindi. 1629 yilda beva va etimlarni sug'urta qilish sug'urta jamiyatining ulushchilar yig'ini bo'lib o'tdi. Ushbu jamiyatning maqsadi beva etimlarni boquvchisi vafot etgandan keyin nafaqa bilan ta'minlash bo'ldi. Bunday tashkilotlarni tashkil qilish dastlabki urinishlar muvaffaqiyatsiz tugadi. Muvaffaqiyatsizlikning asosiy sababi sug'urta fondining kichikligi va yirik to'lovlarga talab ko'pligi bo'ldi.

XVII asr o'rtalarida Londonda Flitstrp klubi tashkil qilindi. U xayot sug'urtasi bilan shug'ulana boshladi. Ingliz tadbirkori jeyms Dodson mazkur klubga a'zo bo'lish istagini bildirganda unga rad javobi berildi. SHundan keyin Jeyms Dodson o'zining shaxsiy sug'urtasi jamiyatini tashkil qildi. U London qabristonlari bo'yicha ma'lumotlar yig'di, vafot etganlarning o'rtacha umrini xisoblab chiqdi. Jeyms Dodson Ushbu statistik ma'lumotlarini sug'urta mukofotini xisoblashda foydalanadi.

«Ekvitebl» sug'urta kompaniyasi sug'urta tarixida birinchi marta sug'urta qiymatini xisoblashda statistik ma'lumotlardan va matematik xisob-kitoblardan foydalangan. Ushbu sug'urta kompaniyasining muvaffaqiyati XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. SHu bilan birga XIX asr boshlarida Germaniyada birinchi sug'urta banki Gote shaxrida ochildi.

1774 yilda Anglyada «Firibgarlik to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga asosan shaxsiy sug'urta sug'urtasi shartnomasini tuzuvchi shaxs sug'urtalanuvchi xayotda sug'urta manfaati bo'lishi belgilandi.

Rivojlangan davlatlar amaliyotida shaxsiy sugʻurta tarkibiga hayot sugʻurtasi, baxtsiz hodisalardan sugʻurta va tibiiy sugʻurtalar kiradi.

Shaxsiy sugʻurta tizimi sugʻurtalanuvchilarning turli xildagi manfaatlarini inobatga oladi. Shulardan hayot sugʻurtasi ommaviy sugʻurta shartnomasi boʻlib, u sugʻurtaning risk va omonat funksiyalarini oʻzida jamlashtiradi.

Sugʻurtalanuvchilar kontingenti tanlashda sugʻurtachi asosan ikki kriteriya asosida ish yuritadi.

Shaxsiy sugʻurtani amalga oshirishda sugʻurtalanuvchi va sugʻurtalangan shaxsning yoshi va sogʻligʻi holati asosiy omil hisoblanadi. Koʻpchilik shaxsiy sugʻurta shartnomalari besh yilga tuziladi va boshqa muddatlarga ham tuzilishi mumkin.

Hayot sugʻurtasi shaxsiy sugʻurtaning kichik tarmogʻi hisoblanadi. Uning asosiy aniqlovchi belgisi boʻlib, sugʻurtalangan shaxsning sugʻurta shartnomasi boʻyicha belgilangan yoshgacha yashashi yoki vafot etishi sababli pul toʻlovlari amalga oshiriladi.

Mazkur sugʻurta faoliyati turida sugʻurtalangan shaxsning hayoti sugʻurta obʻekti hisoblanadi. Hayot sugʻurtasining quyidagi turlarini koʻrsatib berishimiz mumkin:

- sugʻurta muddatigacha yoki maʼlum yoshgacha yashashni sugʻurtalash;
- maʼlum yoshgacha yoki sugʻurta muddatigacha shaxsning vafot etishi;
- hayotni aralash sugʻurtalash;
- bollarni nikohga kiriish holatini sugʻurtalash;
- renta (annuitet) sugʻurtasi;
- nodavlat nafaqa sugʻurtasi;
- kasbiy taʼlim uchun toʻlovlar sugʻurtasi.

Xayot sugʻurtasi subʻektlari – sugʻurtachi, sugʻurtalanuvchi, sugʻurtalangan shaxs, naf oluvchi, sugʻurta bozorining qolgan professional ishtirokchilari hisoblanadi.

Sugʻurtachi boʻlib sugʻurtaning boshqa tarmoq va turlaridagi kabi hayot sugʻurtasini amalga oshirishga ruxsat beruvchi maxsus litsenziyaga ega boʻlgan yuridik shaxs hisoblanadi.

Baxtsiz xodisalardan sugʻurtalash – shartlashgan hodisa roʻy berishi natijasida sugʻurtalangan shaxsning vafot etishi, sogʻligʻini yoʻqotishi natijasida sugʻurta toʻlovlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi shaxsiy sugʻurta turlari yigʻindisidir.

Baxtsiz xodisalardan sugʻurtalash barcha muomala yoshidagi fuqarolarga, bolalarga maktab oʻquvchilariga, yoʻldagi yoʻlovchilarga, xavfli mehnat sharoitiga ega boʻlgan ayrim ishchilarga tadbiq qilinadi. Maxsus qoida asosida aholining ayrim guruhlari (bolalar, yoʻlovchilar va boshqa) sugʻurtalanishi mumkin.

Shuningdek kasal kishilarni va nafaqa yoshidagi kishilarni baxtsiz hodisalardan sugʻurtalashda ayrim chegaralanishlar mavjud. SHu bilan birga baxtsiz xodisalardan sugʻurtalash individual va kollektiv shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Sugʻurtalanuvchi boʻlib muomala layoqatiga ega boʻlgan shaxslar hisoblanadi.

Bolalarni baxtsiz hodisalar ehtiyot shart sugʻurtalash turlaridan biri bolalarni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sugʻurtalashning individual turidir. Muomala layoqatiga ega boʻlgan har qanday jismoniy shaxs sugʻurtalanuvchi boʻlishi mumkin.

Ushbu sugʻurta turiga asosan maktab oʻquvchilari, kollej, oliy oʻquv yurtlari talabalari baxtsiz hodisalardan sugʻurtalanadi.

Tibbiy sugʻurta – shaxsiy sugʻurtaning kichik tarmogʻi hisoblanadi. Uning maqsadli fondlari korxona, tashkilotlar, mahalliy hokimiyatlar, fuqarolarning badallari hisobidan shakllantiriladi. Tibbiy sugʻurtaning maqsadli jamgʻarmalari mablagʻlari aholiga tibbiy xizmat koʻrsatish xarajatlari moliyalashtiriladi. tibbiy sugʻurta tibbiy xizmat olishni kafolatlaydi.

Xalqaro amaliyotda tibbiy sugʻurta ikki shaklda amalga oshiriladi: majburiy va ixtiyoriy.

Majburiy tibbiy sugʻurta – davlat sugʻurtasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Majburiy sugʻurta orqali fuqarolar tibbiy yordami va dori-darmonlar olish imkoniyatiga ega boʻladi. Tibbiy yordam va dori darmon xarajatlari majburiy sugʻurta mablagʻlaridan qoplanadi. Majburiy tibbiy sugʻurta orqali barcha fuqarolarga minimal tibbiy xizmat koʻrsatilishi taʼminlanadi. Minimal tibbiy xizmat tarkibiga tez yordam, uyda tibbiy yordam koʻrsatish va boshqa yordam kiritiladi.

Ammo tibbiy sugʻurtada kasalga qarash, profilaktik chora-tadbirlarni oʻtkazish, qimmat baho dori-darmon sotib olish xarajatlari sugʻurta javobgarligiga olinmaydi.

Ixtiyoriy tibbiy sugʻurta-majburiy tibbiy sugʻurtaga qoʻshimcha sifatida olib boriladi. Ixtiyoriy tibbiy sugʻurta orqali fuqarolar majburiy tibbiy sugʻurta dasturida belgilangan tibbiy xizmat koʻrsatish meyoridan oshgan qismi qoplanadi. Ixtiyoriy tibbiy sugʻurta ham kollektiv va individual koʻrinishlarga ega.

Tibbiy sugʻurta subʼektlari boʻlib fuqarolar, sugʻurtachilar, tibbiy sugʻurtatashkilotlari hisoblanadi.

Sugʻurta tashkilotlari sugʻurtalanuvchi yoki sugʻurtalangan shaxs oldida huquqiy va moddiy javobgar hisoblanadi(tibbiy sugʻurta shartnomasini shartlarini bajarmasligi uchun).

Fuqarolarning sogʻligʻiga zarar etkazgan yuridik va jismoniy shaxslardan, zarar miqdori darajasida sugʻurtachi undirib olish xuquqiga ega.

Tibbiy sugʻurtada sugʻurta xizmati uchun sugʻurta mukofotini toʻlovchi yuridik va jismoniy shaxslar sugʻurtalanuvchi hisoblanadi.

Ishlovchi xodimlarni sugʻurtalashda korxona va tashkilotlar, ishlamaydigan fuqarolarni sugʻurtalashda oʻz-oʻzini boshqarish idoralari mahalliy hokimiyatlar sugʻurtalanuvchi hisoblanadi.

II BOB. O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDA FUQOROLARNI BAXTSIZ HODISALARDAN SUG‘URTALASHNING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAHLILI («Kafolat» DASK misolida)

2.1 Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart asosida sug‘urtalashning hozirgi holati va uni tahlili

Hozirgi vaqtda baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash ixtiyoriy va majburiy ko‘rinishda amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida baxtsiz hodisalardan majburiy sug‘urtalash yo‘lovchilar, soliq idorasi xodimlari, bojxona idorasi xodimlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, ichki ishlar idorasi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo‘mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat soliq idoralari, favqulodda vaziyatlar idorasi xodimlari xayoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 26 yanvar va 10 dekabrldagi 38/631 sonli Qarorlariga asosan sug‘urtalanadi.

Sug‘urtaning ushbu turi bilan asosan davlat sug‘urta tashkilotlari shug‘ullanishadi.

Majburiy davlat sug‘urtasini 2003 yil 1 yanvardan boshlab “O‘zbekinvest” eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi o‘tkazib kelmoqda. Ushbu sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta tarifi bir sug‘urtalanuvchiga bir yilga eng kam oylik ish haqining miqdorida belgilanadi.

Davlat soliq idorasi xodimlari uchun sug‘urta summasi 80 barobar minimal ish haqi miqdorida belgilangan⁶. Har-bir sug‘urtalangan davlat soliq idorasi xodimlari uchun sug‘urta mukofoti 20 barobar eng kam ish haqi miqdorida belgilangan. Belgilangan sug‘urta mukofoti O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq idorasi tomonidan tegishli davlat sug‘urta tashkilotiga o‘tkazilib beriladi.

Davlat soliq idorasi xodimlarining hayotini majburiy davlat sug‘urtasi bilan “Kafolat” davlat hissadorlik kompaniyasi 2002 yilning 31 dekabriga qadar shug‘illangan.

⁶ Ўзбекистон Республикаси вазирлар маҳкамасининг 1994 йил 10 декабридаги 631 сонли Қарори. “Норма” ҳуқуқий-меёрий ҳужжатлар манбааси.

2003 yilning 1 yanvaridan e'tiboran mazkur sug'urta turi bilan "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi shug'ullanib kelmoqda. Sug'urta mukofotlari sug'urtalanuvchi uchun respublika byudjeti mablag'lari hisobidan to'lanadi.

1994 yillning 1 yanvaridan harbiy majuriyati bor va harbiy xizmatchilarning hayoti o'lim, kotuziya olishdan va turi xil kasalliklardan sug'urtalana boshladi. Sug'urtalashning asosiy shartlaridan biri mazkur sug'urta hodisasi faqat xizmat faoliyati bilan bog'liq hollarni o'z ichiga oladi.

Sug'urtachi sug'urtalangan xodimlar xizmat davrida halok bo'lsa, yoki xizmat muddati tugagandan keyin bir yil moboynida kontuziya olishi bilan vafot etsa sug'urtalangan xodimning vorislariga 7 yillik eng kam ish haqi miqdoridagi sug'urta qoplamasi to'lanadi⁷. Sug'urta qoplamasini olish uchun vorislar ularning vorisligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilishadi.

Xodimlar xizmat o'tash davrida nogiron bo'lgan hollarda(xizmat muddati tugagandan keyin bir yil muddat davomida) agar xodim :

- 1- guruh nogironi bo'lsa 75%;
- 2- guruh nogironi -50%;
- 3-guruh nogironi -30% miqdorida sug'urta qoplamasi to'lab beriladi.

Harbiy xizmatchi xizmat burchini o'tash vaqdida og'ir yarador bo'lsaa - 20%, engil yarador bo'lsa 10% miqdorida sug'urta qoplamasi to'lanadi.

Harbiy xizmatchilarning hayotini davlat sug'urtasi uchun sug'urta mukofoti tarif stavkasi har-bir xodim uchun eng kam ish haqining 20% miqdorida, bir yil uchun belgilangan.

Ushbu sug'urta turini "Kafolat" davlat hissadorlik sug'urta kompaniyasi 2002 yilning 31 dekabriga qadar olib bordi. 2003 yilning 1 yanvaridan harbiy xizmatchilarning hayot sug'urtasini "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi amalga oshira boshladi.

⁷ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 26 январдаги 38 – сонли Қарори, “Норма” ҳуқуқий-меёрий манбаа.

Bundan tashqari umumiy foydalanishdagi havo, temir yo‘l, ichki suv va avtomobil transporti yo‘lovchilarining majburiy shaxsiy davlat sug‘urtasi belgilangan. Sug‘urtaning ushbu turida sug‘urta mukofotlari va sug‘urta qoplamalari miqdorlari olingan jarohat og‘irlik darajasiga qarab belgilanadi.

Umumiy foydalanishdagi havo, temir yo‘l, ichki suv va avtomobil transporti yo‘lovchilarining majburiy shaxsiy davlat sug‘urtasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, qonunlar va sug‘urta tashkilotlarining meyoriy hujjatlari talablari asosida tartibga solinadi.

Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2015 yil 21 mayda “Tashuvchilarning fuqorolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash” to‘g‘risidagi Qonuniga muvofiq ravishda “Tashuvchilarning fuqorolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash bo‘yicha bir yo‘lovchi uchun sug‘urta puli 11000 AQSH dollar qilib belgilanib, undan 10000 AQSH dollari yo‘lovchining sog‘lig‘iga etkazilgan zarar uchun, qolgan 1000 AQSH dollari yo‘lovchining mol-mulkiga etkazilgan zararlar uchun qoplanishi belgilab qo‘yilgan. Mazkur qonun loyihasi ijrosini yanada takomillashtirish maqsadida 3 ta davlat ulushiga ega bo‘lgan kompaniyalarga ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan.

Bolalarni baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urtalash shartnomalariga asosan 1 yoshdan 18 yoshgacha bolalar baxtsiz hodisalardan sug‘urtalanadi. Sug‘urta summasi sug‘urtachi va sug‘urtalanuvchi o‘rtasidan kelishilgan holda belgilanadi.

Sug‘urta mukofoti sug‘urta summasiga nisbatan belgilanadi. Bir yillik sug‘urta muddati bilan, 1 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun 1.2%, 16 yoshdan 18 yoshgacha -1.6% sug‘urta mukofotlari belgilanishi mumkin.

Yo‘lovchilarni sug‘urtasi-baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urtalashda yo‘lovchilarning yo‘l vaqtida baxtsiz hodisa yuz bergan vaqtida belgilangan sug‘urta summasi qisman yoki to‘liqligicha to‘lab beriladi.

Yo‘lovchilarning majburiy shaxsiy sug‘urtasi havo, temir yo‘l, dengiz, ichki suv, avtomobil transporti yo‘lovchilariga tadbiiq qilinadi.

Sug'urtalangan yo'lovchining sog'lig'iga zarar etsa, yoki baxtsiz hodisa natijasida vafot etsa sug'urta summasi to'lab beriladi.

Shuningdek «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, kompaniya eng yirik mintaqaviy bo'linmalar tarmog'iga ega bo'lishiga qaramay aholi va tashkilotlarga yaqinlashish hamda mijozlarga yanada qulayliklar yaratish maqsadida birgina so'nggi besh yilda respublikamizning 70 dan ortiq aholi manzilgohida (asosan qishloq tumanlari markazlarida) yangi bo'linmalarini ochdi. Hozirgi kunga kelib kompaniya tarkibida 165 ta hududiy bo'linmalar, jumladan, 15 ta filial, 38 ta bo'lim va 112 ta agentlik yuridik va jismoniy shaxslarga keng qamrovdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatmoqdalar. Bundan tashqari aholi va korxona-tashkilotlarga bevosita joylarda sug'urta xizmati ko'rsatish sohasida kompaniyaning 1000 ga yaqin yuridik va jismoniy sug'urta agentlari safarbar etilgan.

Shu bilan bir qatorda «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi aholi, korxona va tashkilotlarga yanada yaqin bo'lish maqsadida xizmat ko'rsatish tarmog'ini kengaytirmoqda hamda har bir mijozning zamonaviy talablariga javob beruvchi sug'urta turlari spektrini taqdim etib kelmoqda. Kompaniya xodimlari mijozlarning talab va istaklarini qondira oladigan yangi yo'nalishlar va sug'urta turlarini yaratish ustida doimiy ravishda ish olib borishmoqda.

«Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tashkil topgan dastlabki yillarda majburiy va ixtiyoriy sug'urta sohasining 25 turi bo'yicha xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, hozirga kelib, umumiy sug'urta tarmog'ining barcha 17 ta klasslari doirasida 80 dan ortiq sug'urta turlarini taklif etib kelmoqda. Hususan, so'nggi yillarda ixtiyoriy tibbiy sug'urta, ipoteka sug'urtasi, lizing sug'urtasi, garovga qo'yilayotgan avtotransport vositalarini kompleks sug'urtalash, eksport shartnomalarini kompleks sug'urtalash, ijaraga olingan ko'chmas mulk sug'urtasi, tibbiyot xodimlarining kasbiy javobgarligini

sugʻurtalash kabi bir qancha yangi sugʻurta turlari ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etildi.

2014 yil yakuniga koʻra kompaniyada jami sugʻurta mukofotlari hajmi 42,3 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2012 yil koʻrsatkichiga nisbatan 9,5 mlrd. soʻmga oshdi. Sugʻurta mukofotlari umumiy hajmida 9,2% dan ortiq koʻrsatkich bilan kompaniya respublikadagi 31 ga yaqin sugʻurtalovchilar oʻrtasida 4- oʻrinni egalladi.

Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, mijozlar bilan ishlashning faolligi darajasini aks ettiruvchi sugʻurta shartnomalari soni salkam 42,0 mingtani tashkil etib, bu boʻyicha esa kompaniya Oʻzbekistonda ikkinchi oʻrinni egallab kelmoqda. SHu oʻrinda taʼkidlash joizki tuzilgan shartnomalar sonining 81,4 foizi jismoniy shaxslar hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Shuningdek «Kafolat» davlat aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasi tomonidan koʻrsatilgan sugʻurta xizmatlari hajmi salkam 15,1 trln. soʻmni tashkil etib, 2013 yil koʻrsatkichiga nisbatan 5,1 trln. soʻmga oshdi.

Shu bilan bir qatorda kompaniya tomonidan sugʻurta qoplamalarini toʻlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonini takomillashtirish, sugʻurta hodisasi sodir boʻlgan vaqt bilan sugʻurta qoplamasini toʻlash vaqti oraligʻini qisqartirishga alohida eʼtibor berilmoqda.

Kompaniyaning sugʻurta shartnomalari boʻyicha tuzilgan majburiyatlarni toʻliq va oʻz vaqtida bajarishga intilishi sugʻurta hodisalari boʻyicha toʻlovlarning oʻsishida oʻz tasdigʻini topmoqda. 2014 yil yakuniga koʻra yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan 3023 ta daʼvo arizalari yuzasidan sugʻurta qoplamalari toʻlab berildi, bu oʻrta hisobda kuniga 7-8 ta sugʻurta toʻlovlari amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Sugʻurta qoplamalarining asosiy qismi transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurtalash, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurta qilish, garovga qoʻyilgan mulkni sugʻurtalash, yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli mulk va avtotransport vositalarini sugʻurtalash hamda shaxsiy sugʻurta turlari hissasiga toʻgʻri keladi.

Shuningdek «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tomonidan umumiy sug'urta tarmog'ining 1-2-klasslari doirasida ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari ham o'ziga xos-xususiyatga ega (3-jadvalga qarang).

3-jadval

«Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tomonidan baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish va kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish to'g'risida ma'lumot⁸

1-KLASS-BAXTSIZ HODISALARDAN EHTIYOT SHART SUG'URTA QILISH BO'YICHA:				
Amalga oshirilishi bo'yicha	birlik	2012	2013	2014
- sug'urta javobgarligi	mlrd.so'm	896,62	1054,85	1241,00
- sug'urta mukofoti	mln.so'm	657,62	773,67	610,20
- sug'urta qoplamasi (to'lov)	mln.so'm	197,29	232,10	273,06
- sug'urta shartnomasi	dona	229231	269684	317275
2-KLASS-KASALLIKDAN EHTIYOT SHART SUG'URTA QILISH BO'YICHA:				
Amalga oshirilishi bo'yicha	birlik	2012	2013	2014
- sug'urta javobgarligi	mln.so'm	326,93	384,63	452,50
- sug'urta mukofoti	mln.so'm	35,98	42,33	49,80
- sug'urta qoplamasi (to'lov)	mln.so'm	10,79	12,70	14,94
- sug'urta shartnomasi	dona	690	812	955
1-2-KLASS BO'YICHA:				
Amalga oshirilishi bo'yicha	birlik	2012	2013	2014
- sug'urta javobgarligi	mln.so'm	953,70	1122,00	1320,00
- sug'urta mukofoti	mln.so'm	715,28	841,50	990,00
- sug'urta qoplamasi (to'lov)	mln.so'm	250,35	294,53	346,50
- sug'urta shartnomasi	dona	5129	6035	7100

3-jadvalda, «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tomonidan baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish va kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish bo'yicha ma'lumotlar o'z aksini topgan. Mazkur jadvalga ko'ra,

⁸ «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining yillik hisobot materiallari asosida tayёрланди.


1-klass baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish bo'yicha olingan sug'urta javobgarligi 2012 yilda 896,62 mlrd.so'mni, sug'urta mukofoti 657,62 mln.so'mni, sug'urta qoplamasi 197,29 mln.so'mni, sug'urta shartnomasi 229231 donani, 2013 yilda sug'urta javobgarligi 1054,85 mlrd.so'mni, sug'urta mukofoti 773,67 mln.so'mni, sug'urta qoplamasi 232,10 mln.so'mni, sug'urta qoplamasi 269684 donani, 2014 yilda sug'urta javobgarligi 1241,00 mlrd.so'mni, sug'urta mukofoti 910,20 mln.so'mni, sug'urta qoplamasi 273,06 mln.so'mni, sug'urta shartnomasi 317275 donani tashkil etmoqda.

SHuningdek *2-klass kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish bo'yicha* olingan sug'urta javobgarligi 2012 yilda 326,93 mln.so'mni, sug'urta mukofoti 35,98 mln.so'mni, sug'urta qoplamasi 10,79 mln.so'mni, sug'urta shartnomasi 690 donani, 2013 yilda sug'urta javobgarligi 384,63 mln.so'mni, sug'urta mukofoti 42,33 mln.so'mni, sug'urta qoplamasi 12,70 mln.so'mni, sug'urta shartnomasi 812 donani, 2014 yilda sug'urta javobgarligi 452,50 mln.so'mni, sug'urta mukofoti 49,80 mln.so'mni, sug'urta qoplamasi 14,94 mln.so'mni, sug'urta shartnomasi 955 donani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkichlar tahlili natijasidan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, «Kafolat» DASK AJ tomonidan 2012,2013,2014 yillar davomida mijozlarga *1-klass baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilish bo'yicha* va *2-klass kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish bo'yicha* ko'rsatilgan sug'urta xizmatlari juda sifatli hamda ishonchli ko'rsatib kelayotganligidan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda kompaniya milliy sug'urta bozorda ham o'zining nufuzli kompaniyaligi bilan qolaversa sifatli sug'urta xizmati bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda kompaniyaning barcha viloyat hududlarida o'zining filial va bo'linmalariga egaligi hamda sug'urtaning umumiy sug'urta tarmog'i bo'yicha tegishli litsenziyaga olganligi munosabati bilan u umumiy sug'urta tarmog'ining barcha klasslari bo'yicha mijozlarga o'zlarining sifatli sug'urta xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

2.2 Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashda sug'urta mukofotlari va qoplamalarini qiyosiy tahlili


O'tgan davr mobaynida «Kafolat» davlat akatsiyadorlik sug'urta kompaniya barqaror rivojlandi va mamlakatda yig'ilayotgan sug'urta mukofotlari hajmi bo'yicha etakchilardan biriga aylanib, universal sug'urtalovchi degan maqomga sazovor bo'ldi. Sug'urta xizmatlari bozorida ishonchli, barqaror sug'urtalovchi hamda mijozlariga hamkor ekanligini isbotlay oldi. Masalan fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotini o'sish dinamikasini kuzatishimiz mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm. «Kafolat» DASK AJ va Toshkent shahar filiali 2010-2014 yillar davomida, «Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash» bo'yicha sug'urta mukofotining o'sish dinamikasi (foizda)⁹

⁹ Kafolat DASK AJ ni 2014 yil yillik hisobot materiallari asosida tayorlandi.

1- rasmda «Kafolat» DASK AJ va Toshkent shahar filiali 2010-2014 yillar davomida, «Baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash» boʻyicha sugʻurta mukofotining oʻsish dinamikasi keltirilgan. Ushbu rasmda «Kafolat» DASK AJ tomonidan 2011 yilda «Baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash» boʻyicha sugʻurta mukofoti 127,9 foizni tashkil etgan boʻlsa 2012 yilda 129,6 foizga yoki 1,7 foizga oʻsgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2013 yilda 101,1 foizga yoki 2012 yilga nisbatan 28,5 foizga pasaygan. SHu bilan bir qatorda 2014 yilda 87,0 foizni tashkil qilgan boʻlsa, 2013 yilga nisbatan 14,1 foizga pasayganligidan dalolat bermoqda. SHu bilan bir qatorda «Kafolat» DASK AJ va Toshkent shahar filiali tomonidan 2010-2014 yillar oraligʻida shaxsiy sugʻurta xizmati boʻyicha sugʻurta xizmatlari koʻrsatilgan. Bu boʻyicha maʼlumotlar 2-rasmda keltirilgan maʼlumotlardan koʻrishimiz mumkin.



2-rasm. «Kafolat» DASK AJ va Toshkent shahar filiali 2010-2014 yillar davomida, shaxsiy sugʻurta boʻyicha sugʻurta mukofotining oʻsish dinamikasi (foizda)¹⁰

¹⁰ Kafolat DASK AJ ni 2014 yil yillik hisobot materiallari asosida tayyorlandi.

2-rasmda, «Kafolat» DASK AJ va Toshkent shahar filiali 2010-2014 yillar davomida, shaxsiy sugʻurta boʻyicha sugʻurta mukofotining oʻsish dinamikasi keltirilgan boʻlib, unda 2011 yilda «Kafolat» DASK Toshkent shahar filiali tomonidan sugʻurta mukofotlari 100,5 foizga, 2012 yilda 88,0 foizga yaʼni 2011 yilga nisbatan 12,5 foizga kam, shu bilan bir qatorda 2013 yilda shaxsiy sugʻurta boʻyicha «Kafolat» DASK AJ tomonidan yigʻilgan sugʻurta mukofotlari ulushi 103,6 foizni, 2014 yilda 92,2 foizni yaʼni 2013 yilga nisbatan 11,4 foizga kam sugʻurta mukofotlari yigʻilgan.

2014 yilda «Kafolat» DASK AJ tomonidan tuzilgan sugʻurta shartnomalari, yigʻilgan sugʻurta mukofotlari, olingan sugʻurta javobgarligi, sugʻurta daʼvolari hamda sugʻurta toʻlovlari atroflicha toʻxtalib oʻtamiz. Buni quyida keltirilgan 4-jadval maʼlumotlaridan koʻrishimiz mumkin.

4-jadval

2014 yilda "Kafolat" DASK AJ tomonidan tuzilgan shartnomalari, yigʻilgan sugʻurta mukofotlari, olingan javobgarlik, sugʻurta daʼvolari va amalga oshirilgan sugʻurta toʻlovlari toʻgʻrisida maʼlumot¹¹

Koʻrsatkichlar	Birlik	Barcha sugʻurta turlari	Ixtiyoriy sugʻurta turlari	Majburiy sugʻurta turlari	Ixtiyoriy sugʻurtaning ulushi, %	Majburiy sugʻurtaning ulushi, %
Tuzilgan sugʻurta shartnomalar	dona	583 286	245 873	337 413	42,2	57,8
Sugʻurta mukofoti	mln. sum	42 045,0	12 517,0	29 528,0	29,8	70,2
Olingan javobgarlik	mlrd. sum	15 100,0	9 900,0	5 200,0	65,6	34,4
Sugʻurta daʼvolari	dona	3 023	1 644	1 379	54,4	45,6
Sugʻurta toʻlovlari	mln. sum	7 206,0	1 168,0	6 038,0	16,2	83,8

4- jadvalda, kompaniya tomonidan 2014 yilda barcha sugʻurta turlari boʻyicha tuzilgan sugʻurta shartnomalari 583286 dona, sugʻurta mukofoti

¹¹ Kafolat DASK AJ ni 2014 yil yillik hisobot materiallari asosida tayorlandi.

42045,0 mln.so‘m, olingan javobgarlik 15100,0 mlrd.so‘m, sug‘urta da‘volari 3023 dona, sug‘urta to‘lovlari 7206,0 mln.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, shundan ixtiyoriy sug‘urta turlari tuzilgan sug‘urta shartnomalari 245873 dona yoki 42,2 foizni, majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha 337413 donani yoki 57,8 foizni tashkil qilgan. Shuningdek 2014 yilda ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari 12517,0 mln.so‘m yoki 29,8 foizni, majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha esa 29528,0 mln.so‘mni yoki 70,2 foizni, shu bilan birga kompaniya tomonidan 2014 yilda olingan javobgarlik ixtiyoriy sug‘urta turlari 9900,0 mlrd.so‘mni yoki 65,6 foizni, majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha 5200,0 mlrd.so‘mni yoki 34,4 foizni tashkil qilmoqda. Kompaniyaga 2014 yilda sug‘urtalanuvchilar tomonidan kelib tushgan sug‘urta da‘volari ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha 1644 dona yoki 54,4 foiz, majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha 1379 dona yoki 45,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha esa ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha 1168,0 mln.so‘mni yoki 16,2 foizni, majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha 6038,0 mln.so‘mni yoki 83,8 foizni tashkil qilganligini guvohi bo‘lish mumkin.

Umuman olganda kompaniya tomonidan tuzilgan sug‘urta shartnomalar soni, yig‘ilgan sug‘urta mukofotlar ulushi ixtiyoriy sug‘urtaga nisbatan majburiy sug‘urta turi bo‘yicha tuzilgan sug‘urta shartnomalar soni va yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarining ulushi yuqori. Chunki oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan majburiy sug‘urtani amalga oshirish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari takomillashtirildi qolaversa sug‘urta xizmatlari ko‘lami kengaydi. Shu bois kompaniya tomonidan majburiy sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish imkoniyati kengayganligi tufayli majburiy sug‘urta xizmati bo‘yicha tuzilgan sug‘urta shartnomalar soni va yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari ulushi yuqori bo‘lib bormoqda. Shu bilan bir qatorda kompaniyaning hududlaridagi filiallari tomonidan majburiy va ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni quyidagi 5-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.


**2014 yilda "Kafolat" DASK AJ ni hududlardagi filiallari
tomonidan majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha
yig'ilgan sug'urta mukofotlari to'g'risida ma'lumot**
(mln.so'm)¹²

Filial	Sug'urta mukofoti, ming so'm		
	Umumiy	Majburiy sug'urta	Ixtiyoriy sug'urta
Qoraqalpog'iston Respublikasi	883 703,9	487 566,9	396 137,0
Andijon	1 557 645,7	887 322,7	670 323,0
Buxoro	697 510,1	449 695,1	247 815,0
Jizzax	702 572,7	413 721,6	288 851,1
Qashqadaryo	2 458 433,8	1 295 194,8	1 163 239,0
Navoiy	1 309 271,8	715 166,4	594 105,4
Namangan	1 326 874,9	795 261,9	531 613,0
Samarqand	1 845 213,4	1 066 851,3	778 362,1
Surxondaryo	834 074,8	475 388,2	358 686,6
Sirdaryo	541 778,2	356 471,5	185 306,7
Toshkent viloyati	5 069 747,7	2 926 045,1	2 143 702,6
Farg'ona	2 189 359,1	1 474 421,2	714 937,9
Xorazm	827 657,0	283 641,8	544 015,2
Toshkent shahar	5 578 432,8	4 495 823,3	1 082 609,5
Anderrayting M.	2 510 964,8	1 694 616,3	816 348,5
Boshqaruv	13 712 298,4	11 710 566,4	2 001 732,0
Umumiy	42 045 539,1	29 527 754,5	12 517 784,6

5-jadvalda, keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, kompaniya barcha viloyatlarida o'zining bo'linmalariga qolaversa filiallariga ega. SHu bois «Kafolat» DASK AJ transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini

¹² Kafolat DASK AJ ni 2014 yil yillik hisobot materiallari asosida tayorlandi.

majburiy sug'urtalash bo'yicha o'zining litsenziyasiga ega. Chunki sug'urta kompaniyalari ushbu sug'urta xizmati bilan shug'ullanishlari uchun albatta ularning hududlarda filiallari bo'lishiga qo'yilgan talab mavjud. Mazkur jadval bo'yicha atroflicha to'xtaladigan bo'lsak, 2014 yilda kompaniyaning Toshkent shahar filiali bo'yicha umumiy yig'ilgan sug'urta mukofoti 5578432,8 mln.so'mni tashkil qilib, shundan 4495823,3 mln.so'mi majburiy sug'urta turi bo'yicha qolgan 1082609,5 mln.so'mi ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlariga to'g'ri keladi.



3-rasm. 2014 yilda "Kafolat" DASK AJ ni hududlardagi filiallari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari ulushi (foizda)¹³

¹³ Kafolat DASK AJ ni 2014 yil yillik hisobot materiallari asosida tayorlandi.

Shuningdek Toshkent viloyati bo'yicha umumiy yig'ilgan sug'urta mukofotlari 5069747,7 mln.so'mni tashkil qilgan bo'lib, shundan 2926045,1 mln.so'mi majburiy sug'urta turlari bo'yicha, qolgan 2143702,6 mln.so'mi ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga Farg'ona viloyati bo'yicha ko'radigan bo'lsak, 2014 yilda yig'ilgan umumiy sug'urta mukofotlari 2189359,1 mln. so'mni tashkil qilib, shundan 1474421,2 mln.so'mni majburiy sug'urta turlari bo'yicha, qolgan 714937,9 mln.so'mi ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari ulushiga to'g'ri keladi.

Samarqanda viloyati bo'yicha ko'radigan bo'lsak umumiy yig'ilgan sug'urta mukofotlari 1845213,4 mln. so'm, shundan 1066851,3 mln.so'mi majburiy sug'urta turlari bo'yicha, qolgan 778362,1 mln.so'mi ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlarga to'g'ri keladi. SHu bilan birga Navoiy viloyati bo'yicha ko'radigan bo'lsak, 2014 yilda umumiy yig'ilgan sug'urta mukofotlari 1309271,8 mln.so'mni tashkil qilib, shundan 715166,4 mln.so'mi majburiy sug'urta turlari bo'yicha, qolgan 594105,4 mln.so'mi ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek Kafolat» DASK AJ ning filiallari bo'yicha umumiy yig'ilgan sug'urta mukofotlari ulushi 42045539,1 mln.so'mni tashkil qilib, shundan 29527754,5 mln.so'mi majburiy sug'urta turlari bo'yicha, qolgan 12517784,6 mln.so'mi ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari ulushiga to'g'ri kelmoqda. SHu bilan bir qatorda 2014 yilda "Kafolat" DASK AJ ni hududlardagi filiallari tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalari to'g'risida ma'lumotni quyida keltirilgan 6-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.


**2014 yilda "Kafolat" DASK AJ ni hududlardagi filiallari
tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalari to'g'risida ma'lumot
(soni)¹⁴**

Filial	SHartnoma soni		
	Umumiy	Majburiy sug'urta	Ixtiyoriy sug'urta
Qoraqalpog'iston Respublikasi	28 478	12 486	15 992
Andijon	29 117	17 199	11 918
Buxoro	12 277	9 224	3 053
Jizzax	16 088	10 894	5 194
Qashqadaryo	49 373	28 679	20 694
Navoiy	50 541	17 612	32 929
Namangan	32 882	19 300	13 582
Samarqand	37 546	25 890	11 656
Surxondaryo	23 099	11 935	11 164
Sirdaryo	20 480	11 066	9 414
Toshkent viloyati	85 768	38 102	47 666
Farg'ona	45 834	25 260	20 574
Xorazm	26 997	8 436	18 561
Toshkent shahar	74 747	58 853	15 894
Anderrayting M.	40 853	39 895	958
Boshqaruv	9 206	2 582	6 624
Umumiy	583 286	337 413	245 873

6-jadvalda, "Kafolat" DASK AJ ni hududlardagi filiallari tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalari to'g'risida ma'lumotlar o'z aksini topgan. Mazkur jadvalga ko'ra, kompaniya tomonidan umumiy tuzilgan sug'urta shartnomalar soni 583286 dona bo'lib, shundan 337413 donasi majburiy sug'urta turi bo'yicha bo'lib, qolgan 245873 donasi ixtiyoriy sug'urta turi bo'yicha tuzilgan.

¹⁴ Kafolat DASK AJ ni 2014 yil yillik hisobot materiallari asosida tayorlandi.


Shuningdek, Toshkent shahri bo'yicha umumiy tuzilgan sug'urta shartnomalar soni 74747 donani tashkil qilib, bundan 58853 donasi majburiy sug'urta turiga, qolgan 15894 donasi ixtiyoriy sug'urta turiga to'g'ri kelmoqda. 2014 yilda kompaniyaning Toshkent viloyat bo'linmasi tomonidan umumiy tuzilgan sug'urta shartnomalar soni 85768 donani tashkil qilib, undan 38102 donasi majburiy sug'urta turiga, qolgan 47666 donasi ixtiyoriy sug'urta turi bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalariga to'g'ri keladi.



4-rasm. Toshkent shahar filialida 2010-2014 yillar davomida, majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha shartnomalar o'sish dinamikasi (dona)¹⁵

¹⁵ Kafolat DASK AJ ni 2014 yil yillik hisobot materiallari asosida tayorlandi.


Shu bilan bir qatorda Buxoro viloyati tomonidan umumiy tuzilgan sug'urta shartnomalar soni 12277 dona bo'lib, 9224 donasi majburiy sug'urta turi bo'yicha, qolgan 3053 donasi ixtiyoriy sug'urta turi bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalariga to'g'ri keladi. Qashqadaryo viloyati bo'yicha atroflicha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, umumiy tuzilgan sug'urta shartnomalar soni 49373 donani tashkil qilib, shundan 28679 donasi majburiy sug'urta turlari bo'yicha, qolgan 20694 donasi ixtiyoriy sug'urta turi bo'yicha tuzilgan. SHu bilan birga Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha ko'radigan bo'lsak, 2014 yilda umumiy tuzilgan sug'urta shartnomalar soni 28478 donani tashkil etib, shundan 12486 donasi majburiy sug'urta turi bo'yicha, qolgan 15992 donasi ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha tuzilganligidan dalolat bermoqda.



5-rasm. 2014 yilda "Kafolat" DASK AJ ni hududlardagi filiallari tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalar ulushi (foizda)¹⁶

¹⁶ Kafolat DASK AJ ni 2014 yil yillik hisobot materiallari asosida tayorlandi.

5-rasmda, 2014 yilda "Kafolat" DASK AJ ni hududlardagi filiallari tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalar ulushi foizda keltirilgan. Bunda tuzilgan sug'urta shartnomalar ulushi Toshkent shahriga 12 foizi, Toshkent viloyatiga 14 foizi, Navoiy viloyatiga 9 foizi, Qashqadaryo viloyatiga 8 foizi, Jizzax viloyatiga 3 foizi, Buxoro viloyatiga 2 foizi, Andijon viloyatiga 5 foizi, Namangan viloyatiga 6 foizi, Samarqand viloyatiga 6 foizi, Surxondaryo viloyatiga 4 foizi, Sirdaryo viloyatiga 4 foizi, Farg'ona viloyatiga 8 foizi, Xorazm viloyatiga 5 foizi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasiga 5 foizi to'g'ri kelmoqda. Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, tuzilgan sug'urta shartnomalarining ulushi viloyatlar kesimidan olib qaraydigan bo'lsak har xil bo'lib qolmoqda. Chunki ushbu viloyatlarda yashovchi aholining soniga qarab ham sug'urta shartnomalari soni keskin farq qilib boradi. SHu bilan bir qatorda "Kafolat" DASK AJ tomonidan ish beruvchilarni kasbiy javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari ham o'ziga xos tarzda amalga oshirilmoqda. Buni biz quyida keltirilgan 6-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin.



6-rasm. "Kafolat" DASK AJ va Toshkent shahar filiali 2010-2014 yillar davomida, IBFJMS bo'yicha sug'urta mukofotining dinamikasi (foizda)

Yuqorida keltirilgan 6-rasmda "Kafolat" DASK AJ va Toshkent shahar filiali 2010-2014 yillar davomida, IBFJMS bo'yicha sug'urta mukofotining dinamikasi keltirib o'tilgan bo'lib, unda 2011 yilda Respublika bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi 162,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, filial bo'yicha 167,1 foizni ya'ni , 2012 yilda bu ko'rsatkich Respublika bo'yicha 309,1 foizni, filial bo'yicha 154,8 foizga, shu bilan birga 2013 yilda Respublika bo'yicha 106,0 foizga, filial bo'yicha 150,0 foizga, shuningdek 2014 yilda Respublika bo'yicha 141,0 foizga, filial bo'yicha 83,0 foizga o'sib borganligini guvohi bo'lamiz. Chunki, kompaniyaning mingtaqalar filiallari ko'p bo'lganligi tufayli ular tomonidan ish beruvchilarning kasbiy javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari soni yildan-yilga o'sib borgan. Bu o'z navbtida shundan dalolat beradiki, kompaniya sug'urta bozorida o'zining sifatli sug'urta xizmatlari bilan nufuzi oshib borgan. Buning asosiy sababi kompaniya tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlarini sifati va unga bo'lgan ishonch yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Umuman olganda kompaniyaning viloyatlar kesimidagi fiallari tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomalari soni yildan-yilga o'sib, «Kafolat» DASK AJ ni sug'urta portfelini yuqori darajaga ko'tarmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, kompaniyaning yildan-yilga moliyaviy barqarorlik darajasi va uni sug'urta bozoridagi nufuzi oshib borayotganligidan dalolat beradi.

III BOB. BAXTSIZ HODISALARDAN SUG'URTALASH MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

3.1 Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash mexanizmini rivojlantirish masalalari

Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashni rivojlantirish va uni takomillashtirishning asosiy shartlaridan biri sug'urta bozorida raqobat muhitini shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi aksariyat ekspertlar va taxlilchilarning fikriga ko'ra, mamlakatimiz mintaqalarida raqobat muhiti sust ko'rinishga ega. Eng achinarlisi, aksariyat qishloq tumanlarida fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlarini ko'rsatish hamon yagona sug'urtalovchi - "Kafolat" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining tuman bo'limlari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Haqiqatda, unga raqobatda bo'ladigan tuman bo'limlari aksariyat sug'urta tashkilotlari tomonidan joylarda tashkil etilmagan. Ayni chog'da bu vaziyat to'liq barcha viloyatlarga tegishlidir.

Demak, bayon etilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining viloyat markazlarida fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlari bozori biroz rivojlangan bo'lib, chekka qishloq tumanlarida sug'urtalovchilarning sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan bo'linmalari etarli darajada tashkil etilmagan. Bu o'z navbatida fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlari bozorini bir tekisda rivojlanishiga halaqit bermoqda.

Bitiruv malakaviy ishining oldingi boblarida amal oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasining birorta hududida yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatmaydi. Mavjud sug'urta tashkilotlarining barchasi poytaxtda - Toshkent shahrida ro'yxatga olingan va ular mamlakat mintaqalarida sug'urta xizmatlarini tegishli filial va bo'linmalari orqali ko'rsatadilar. Nazarimizda, fuqorolarni

baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlarini bozorini yanada rivojlantirish maqsadida joylarda mustaqil sug'urta tashkilotlarini tuzish maqsadga muvofiq. Buning uchun tijorat banklari, kredit uyushmalarining ustav fondiga belgilanganidek, tabaqalashtirilgan ustav fondining eng kam miqdorlarini o'rnatish maqsadga muvofiq. Ya'ni, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatadigan sug'urtalovchilar uchun alohida, mintaqalarda faoliyat ko'rsatadigan sug'urtalovchilar uchun alohida ustav fondining eng kam miqdorlarini belgilash lozim. Hozirgi kunda respublikamizning umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urtalovchilar uchun ustav fondining eng kam miqdori 1,5 mln.evro ekvivalentidagi summada belgilangan. Biz bu miqdorni poytaxtda tashkil etiladigan sug'urtalovchilar uchun tatbiq etgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlarda tashkil etiladigan sug'urtalovchilar uchun uning 50 foizi miqdorida, ya'ni 750 ming evro atrofida belgilashni taklif etamiz. Nazarimizda, viloyatlarda tashkil etiladigan sug'urta tashkilotlari uchun bunday tartibni joriy etilishi mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorini shu bilan bir qatorda fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash xizmatini yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishdagi asosiy omillar qatoriga sug'urta polislarini sotish kanallarini kengaytirishni hamda sug'urta polislarini sotishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llashni kiritish mumkin.

Sug'urta agenti mijoz bilan o'zaro foydali muloqot o'rnatish uchun quyidagi oltita muhim omilni e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim:

- o'zaro hayrixohlik. Bu sifat yaxshi ish munosabatlarini o'rnatish uchun muhim shart hisoblanadi. Muruvvatlilik, manfaatlarning umumiyligi hayrixohlikni oshiradi.

- tomonlarning bir-biriga bo'lgan hurmati. Savdo munosabatlari mustahkam bo'lishining yana bir muhim sharti bu hamkorlarning bir-biriga bo'lgan hurmatidir.

- tomonlarning bir-biriga o‘zaro ishonchi. Sotish texnologiyasining muvaffaqiyati hamkorlarining bir-biriga ishonchi o‘zaro ochiqchilik, vijdonda, hulqining «tiniq»ligida, tartibliligidagi va ishonchliligidagi bilinadi.

- o‘zaro tirishqoqlik. Sug‘urta mahsulotlarini sotuvchi sifatida agent hamma kuch-g‘ayratini mijoz bilan yaxshi muomalada bo‘lishga qaratishi lozim. Darhaqiqat, mijozni qiziktirmay turib, agent umumiy qo‘yilgan maqsad yo‘lida hech qanday o‘zgarish qilolmaydi. Ta’bir joiz bo‘lsa, sug‘urta agenti mijozga do‘st bo‘lishi, buning ustiga uning muammolarini echishga yordam berishi, uning har qanday istaklarini bajarishga harakat qilishi kerak. Vazmin va bosiq bo‘lish hamda kamgaplik savdo munosabatlari muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi. SHuningdek, sug‘urta agentining mijoz bilan suhbat olib borish mahoratini, bir-birlarining ish faoliyatiga o‘zaro qiziqishlarini moslashuvchanlik, oliyjanoblilik va mustaqil bo‘lish kabi fazilatlarni sotuv jarayonida ijobiy natijaga erishishning zarur shartlaridan biri sifatida ta’kidlash joiz.

- sotuvchi va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarning jadalligi. SHuni yoddan chiqarmaslik kerakki, o‘zaro munosabatlar ikkala tomon bir-biri bilan doimiy muloqotda bo‘lib turgandagina yaxshilanadi. Agar sug‘urta mahsulotlarini sotuvchi agent mijozlar bilan muntazam yaxshi va mustahkam aloqada bo‘lib turish imkoniyatini topa olmasa, u holda hamma e’tiborni va harakatlarni katta daromad keltiruvchi mijozlarga qaratishi kerak. Mutaxassislarning ma’lum qilishicha, sug‘urta agenti bir paytning o‘zida beshtadan ortiq bo‘lmagan mijozlar bilan haqiqatda yaxshi va mustahkam aloqada bo‘la oladi.

- puxta bilimli bo‘lish. Sug‘urta agenti o‘z kompaniyasini mijozga tanishtirish jarayonida unga kompaniyaning erishgan yutuqlari va ijobiy tomonlari haqida xaqida so‘z ochadi. Agarda agent o‘zini puxta bilim egasi qilib ko‘rsata olmasa, mijoz bilan bo‘ladigan hamma yaxshi munosabatlari izdan chiqadi.

Shunday qilib, sotuvchi va mijoz o‘rtasida qaror topgan o‘zaro ishonch, mijoz haqidagi muammolar to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lish, bu

muammolarning to'g'ri echimini ko'rsatish, oxir-oqibatda sug'urta mahsuloti sotilishiga sharoit yaratadi.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi davlat olib borayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Sug'urta ana shu tizimda o'ziga xos o'rinni egallashi uchun bir qator muammolarni hal etish lozim.

Birinchidan, respublika aholisining qariyb 65 foizi qishloq xududlarda istiqomat qilishi sir emas. Qolaversa, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, ko'p bolali va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining salmoqli qismi ham aynan shu xududlarga to'g'ri keladi. Qishloqda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining asosiy daromad manbalari, faqat, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan nafaqa va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan beriladigan pensiyalarga qaratilgan. Bu holat, o'z-o'zidan qishloq joylarda istiqomat qiladigan aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida sug'urta mexanizmidan samarali foydalanish yo'llarini izlab topishni taqozo qiladi. Bu muammoni hal etish oson ish emas. Chunki, sug'urta har qanday shaklda va usulda amalga oshirilmasin, pulli xizmat bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, to'lov qobiliyati past darajada va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini sug'urta himoyasiga qamrab olish uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

To'lov qobiliyati past va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini, ayniqsa, qishloq joylarda istiqomat qiladigan fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish uchun ushbu yo'nalishda sug'urta xizmatlarini ko'rsatmoqchi bo'lgan sug'urta tashkilotlariga soliqdan imtiyozlar berishni taklif etamiz. Albatta, bu taklif vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, turmush darajasining oshishi barobarida, keyinchalik bu imtiyoz bekor etilishi mumkin.

Ikkinchidan, biz bilamizki, sug'urtaning barcha turi u yoki bu darajada ijtimoiy himoya bilan uzviy bog'langan. Gap aholini sug'urta qilish bilan bog'liq sug'urta xizmatlari haqida ketayotir. Aholining ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq sug'urta xizmat turlariga fuqorolarni kollektiv yoki yakka tartibda baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish, tibbiy sug'urta, fuqorolarni kasalliklardan

sugʻurta qilishni kiritish mumkin. Albatta, respublikamizdagi mavjud sugʻurta kompaniyalarining aytarli barchasi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sugʻurta qilish bilan shugʻullanadi. Bu chakana sugʻurta xizmati hisoblanadi va har bir shaxsga individual yondashuvni talab etadi. Bir tomondan, sugʻurta xizmatini koʻrsatishda shaxsning istak-xoxishlarini eʼtiborga olish muhim ahamiyatga ega, ikkinchi tomondan, bunday tartibda ishlash sugʻurta tashkiloti tasarrufida anchagina sugʻurta agentlari tarmogʻi faoliyat koʻrsatishini talab etadi. Afsuski, Oʻzbekiston sugʻurta bozorida agentlik tarmoqlari sonining oʻsishi kuzatilayotgan boʻlsada, hali-beri bu aholining keng qatlamlarini sugʻurta himoyasiga qamrab olish uchun etarli darajada emas. Xanuzgacha, respublikamizning markazdan ancha uzoq boʻlgan joylarida faqat “Kafolat” davlat-aksiyadorlik sugʻurta kompaniyasining boʻlinmalarini uchratish mumkin. Aksariyat sugʻurta tashkilotlari shahar joylarda tegishli filiallarga ega boʻlib, ularning qishloq tumanlarida shaxobchalari mavjud emas. Holbuki, qishloq joylarda istiqomat qiladigan aholining sugʻurta xizmat turlarini raqobatga asoslangan holda koʻrsatish yuqorida nomi keltirilgan sugʻurta kompaniyasi bilan bir qatorda boshqa sugʻurta tashkilotlarining ham boʻlinmasi tashkil etilishini taqozo etadi. SHundan kelib chiqqan holda sugʻurta mexanizmidan samarali foydalanishni tashkil etish uchun respublika hudularida agentlik shaxobchalarini koʻpaytirish lozim.

Fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash boʻyicha sugʻurta xizmatlari bozorini rivojlantirishda ushbu xizmat bilan bogʻliq axborotlarning ochiqligini taʼminlash, qolaversa, sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy holati, tarif stavkalari, sugʻurta qilish qoidalari kabi maʼlumotlarni olishda muammolarning boʻlmasligi muhim rol uynaydi. Toʻgʻri keyingi yillarda sugʻurta bozorining ochiq-oydinligini taʼminlash, sugʻurta tashkilotlari va ularning operatsiyalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni keng xalq ommasi eʼtiboriga etkazish borasida jiddiy ijobiy qadamlar tashlandi.

XULOSA

O'zbekistonda fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlari bozori yanada rivojlantirish va uni takomillashtirishning hozirgi holati va tendensiyalarini o'rganish hamda tahlil qilish natijasida quyidagi **xulosalarga** keldik.

1. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining sug'urta xizmatlari bozorida 31 ta sug'urta tashkiloti va 8000 ga yaqin sug'urta agentlari faoliyat ko'rsatmoqda. Mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorida, ya'ni aniqroq qilib aytganda Toshkent shahridan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlarda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan mustaqil sug'urta tashkilotlari tashkil etilmagan. Mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozori tarkibiga bosh ofisi Toshkent shahrida joylashgan sug'urta kompaniyalarining filiallari, tuman va shahar bo'limlari hamda ko'p sonli sug'urta polislarini sotish bilan shug'ullanuvchi agentlar kiradi. Sug'urta bozorining boshqa sub'ektlari: sug'urta syurveyerlari, adjasterlar, akturiylar va sug'urta assistansi xizmatlari respublika mintaqalarida tashkil etilmagan.

2. So'ngi yillarda O'zbekiston sug'urta bozori bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari tarkibida mintaqalarning ulushi o'sayotganligiga qaramay, hamon mamlakat sug'urta bozorida Toshkent shahri muhim va salmoqli o'rin egallaydi. Bunga asosiy sabab, birinchidan, Toshkent shahrida biznes muhit, ishlab chiqarish va savdo operatsiyalari, transport va qurilish-montaj ishlari respublikamizning boshqa hududlariga qaraganda kuchli rivojlangan. Ikkinchidan, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalarining bosh ofislari Toshkent shahrida joylashgan. Tabiiyki, bu holat misol uchun, "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi, "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasi kabi yirik mijozlar bilan katta miqdordagi sug'urta shartnomalarini tuzishga asos bo'ladi.

3. O'zbekistonning qadimiy va navqiron mamlakat ekanligi, uning tarixiy shaharlari – Buxoro, Samarqand va Xiva doimo butun dunyo mamlakatlaridan kelgan turistlarni o'ziga jalb qiladi. Bu esa o'z o'rnida turizm sohasida taklif etilayotgan sug'urta xizmatlarining talab darajasida bo'lishi va sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshishiga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan xulosalarga asoslangan holda fuqorolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish maqsadida quyidagi **takliflarni** ishlab chiqdik:

1. O'zbekiston Respublikasining birorta hududida yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatmaydi. Mavjud sug'urta tashkilotlarining barchasi poytaxtda - Toshkent shahrida ro'yxatga olingan va ular mamlakat mintaqalarida sug'urta xizmatlarini tegishli filial va bo'linmalari orqali ko'rsatadilar. Nazarimizda, mintaqaviy sug'urta xizmatlarini bozorini yanada rivojlantirish maqsadida joylarda mustaqil sug'urta tashkilotlarini tuzish maqsadga muvofiq.

Buning uchun tijorat banklari, kredit uyushmalarining ustav fondiga belgilanganidek, tabaqalashtirilgan ustav fondining eng kam miqdorlarini o'rnatish maqsadga muvofiq. YA'ni, Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatadigan sug'urtalovchilar uchun alohida, mintaqalarda faoliyat ko'rsatadigan sug'urtalovchilar uchun alohida ustav fondining eng kam miqdorlarini belgilash lozim. Hozirgi kunda respublikamizning umumiy sug'urta tarmog'ida faoliyat ko'rsatuvchi sug'urtalovchilar uchun ustav fondining eng kam miqdori 1,5 mln. evro ekvivalentidagi summada belgilangan.

Biz bu miqdorni poytaxtda tashkil etiladigan sug'urtalovchilar uchun tatbiq etgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlarda tashkil etiladigan sug'urtalovchilar uchun uning 50 foizi miqdorida, ya'ni 750 ming evro atrofida belgilashni taklif etamiz. Nazarimizda, viloyatlarda tashkil etiladigan sug'urta tashkilotlari uchun bunday tartibini joriy etilishi mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorini rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Birinchidan, respublika aholisining qariyb 50 foizidan ko'pi qishloq xududlarda istiqomat qilishi sir emas. Qolaversa, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, ko'p bolali va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining salmoqli qismi ham aynan shu xududlarga to'g'ri keladi. Qishloqda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining asosiy daromad manbalari, faqat, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan nafaqa va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan beriladigan pensiyalarga qaratilgan. Bu holat, o'z-o'zidan qishloq joylarda istiqomat qiladigan aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimida sug'urta mexanizmidan samarali foydalanish yo'llarini izlab topishni taqozo qiladi. Bu muammoni hal etish oson ish emas. Chunki, sug'urta har qanday shaklda va usulda amalga oshirilmasin, pulli xizmat bo'lib qolaveradi. SHunday ekan, to'lov qobiliyati past darajada va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini sug'urta himoyasiga qamrab olish uchun, bizning fikrimizcha, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

-to'lov qobiliyati past va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini, ayniqsa, qishloq joylarda istiqomat qiladigan aholini sug'urta qilish uchun ushbu yo'nalishda sug'urta xizmatlarini ko'rsatmoqchi bo'lgan sug'urta tashkilotlariga soliqdan imtiyozlar berishni taklif etamiz. Albatta, bu taklif vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, turmush darajasining oshishi barobarida, keyinchalik bu imtiyoz bekor etilishi mumkin;

-biz bilamizki, sug'urtaning barcha turi u yoki bu darajada ijtimoiy himoya bilan uzviy bog'langan. Gap aholini sug'urta qilish bilan bog'liq sug'urta xizmatlari haqida ketayotir. Aholining ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq sug'urta xizmat turlariga fuqarolarni kollektiv yoki yakka tartibda baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish, tibbiy sug'urta, fuqarolarni kasalliklardan sug'urta qilishni kiritish mumkin. Albatta, respublikamizdagi mavjud sug'urta kompaniyalarining aytarli barchasi fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish bilan shug'ullanadi. Bu chakana sug'urta xizmati hisoblanadi va har bir shaxsga individual yondashuvni talab etadi. Bir tomondan, sug'urta xizmatini ko'rsatishda shaxsning istak-xoxishlarini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega,

ikkinchi tomondan, bunday tartibda ishlash sug'urta tashkiloti tasarrufida anchagina sug'urta agentlari tarmog'i faoliyat ko'rsatishini talab etadi;

-afsuski, O'zbekiston sug'urta bozorida agentlik tarmoqlari sonining o'sishi kuzatilayotgan bo'lsada, hali-beri bu aholining keng qatlamlarini sug'urta himoyasiga qamrab olish uchun etarli darajada emas. Xanuzgacha, respublikamizning markazdan ancha uzoq bo'lgan joylarida faqat "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining bo'linmalarini uchratish mumkin. Aksariyat sug'urta tashkilotlari shahar joylarda tegishli filiallarga ega bo'lib, ularning qishloq tumanlarida shaxobchalari mavjud emas. Holbuki, qishloq joylarda istiqomat qiladigan aholining sug'urta xizmat turlarini raqobatga asoslangan holda ko'rsatish yuqorida nomi keltirilgan sug'urta kompaniyasi bilan bir qatorda boshqa sug'urta tashkilotlarining ham bo'linmasi tashkil etilishini taqozo etadi. SHundan kelib chiqqan holda sug'urta mexanizmidan samarali foydalanishni tashkil etish uchun respublika hudularida agentlik shaxobchalarini ko'paytirish lozim;

3. Mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorida mavjud bo'lgan sug'urta xizmat turlarining assortimenti va shakllarini kengaytirishni tavsiya qilamiz.

4. Mintaqaviy sug'urta xizmatlari bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari filiallari va ularning Toshkent shahrida joylashgan bosh ofislari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini qayta ko'rib chiqishni tavsiya etamiz. Bunga asosiy sabab, bosh kompaniya o'z filiallarining sug'urta xizmatlarini ko'rsatish, ayniqsa sug'urta qoplamalarini to'lash bo'yicha huquqlarini ancha cheklab qo'ygan. Bu borada filiallarga mustaqillik berish, ya'ni o'z hududida sodir bo'lgan sug'urta hodisalari natijasida etkazilgan zararlarni qoplash masalasini o'zlari hal qilishlarini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

5. Respublikamiz fuqarolarining sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchi va kafolatli sug'urta xizmatlarini ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida sug'urta kompaniyalarining javobgarlik riskini sug'urtalashni majburiy tartibda joriy qilinishini tavsiya etamiz.

6. Chet elga chiquvchi fuqarolarni sug'urtalashni amalga oshiruvchi sug'urta kompaniyalari dunyoda mashhur bo'lgan, yuqori reyting ko'rsatkichlariga ega va rivojlangan sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va tibbiy hizmatlarni yanada takomillashtirish;

7. Cug'urta bozorida sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorlik darajasini yanada mustahkamlash maqsadida sug'urta kompaniyalari tomonidani ko'rsatiladigan hayot sug'urta tarmog'ini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu o'z navbatida sug'urtalovchining uzoq muddatli investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O'zbekiston,1994 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi-T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 1996y.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». T.: 2002 y., 5 aprel. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3022-son Farmoni. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 1 fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 286-sonli Qarori. 1998 yil 8 iyul.O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari,4-ilova,-T.: 2000.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida»gi 113-sonli Qarori. 1997 yil 28 fevral. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarorlar to'plami,1997, 2-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 618-sonli Qarori.“Bank axborotnomasi” 2007 yil 6 iyun.
9. O'zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida”gi Qonuni. – Xalq so'zi, 2008 yil 21 aprel.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi “Sug'urta

xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Xalq so'zi, 2008 yil 22 may.

11. O'zbekiston Respublikasining "Ish beruvchilarning fuqorolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni. – Xalq so'zi, 2009 yil 17 aprel.

12. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbekiston, 2010.- 67 b.

13. Karimov I. A. Prezidentning 2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi qarori. //Xalq so'zi, 2010 yil 26 noyabr PQ-1438-sonli

14. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi 2015 yil 23 yanvar.

15. O'zbekiston Respublikasini 2014 yilning 1-choragida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risida. Xalq so'zi gazetasi 2014 yil 25 aprel.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

16. Shennaev X.M. Sug'urta agentlari uchun qo'llanma. T. infoCOM.UZ MChJ.-2010 y.

17. Yo'ldoshev M, Tursunov Y. O'zbekiston Respublikasi sug'urta huquqi. Darslik - Toshkent, "Moliya".-2012.

18. Shennaev X.M., Kenjaev I.G'. Chet mamlakatlar sug'urtasi, O'quv qo'llanma, - Toshkent «YAngi nashr»,-2012

19. Shennaev X.M. O'zbekiston sug'urta bozori, O'quv qo'llanma, - Toshkent, "Iqtisod-Moliya",-2013.

20. Shennaev X.M., Ochilov I.K., Shirinov S.E., Kenjaev I.G'. Sug'urta ishi, O'quv qo'llanma,-Toshkent «Iqtisod-Moliya»,-2014.

21. Shennaev X.M., Xaliqulova G.T., Abduraxmonov I.X. Tashqi iqtisodiy faoliyat sug'urtasi, Darslik, -Toshkent-2014.
16. Pod.red. V.V.SHaxova, YU.T.Axvlediani. Straxovanie 3-e izdanie. Uchebnik dlya studentov vuzov.-M.:YUniti, 2009 g.
17. Arxipov A.P. Anderrayting v straxovanie. Teoreticheskiy kurs i praktikum. Uchebnoe posobie.-M.: YUniti, 2009g
18. Zaytseva M.A., Boliboka V.D. Straxovanie vo vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti. Uchebnoe posobie dlya vuzov.-BGEU, 2009g.
19. Prosvetov G.I. Straxovanie: zadachi i resheniya. -M.: Alfa-press, 2009g.
20. Andreev YU.I. Imushchestvennoe straxovanie. Uchebnoe posobie - M.: Os-89, 2009g.
21. Xeydema Djeyms M. Uvlechenniy agent: prakticheskoe posobie dlya straxovix agentov. -M.: Volters-Kluver, 2009g.
22. YU.T.Axvlediani. Straxovanie vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti. Uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.: YUniti, 2010g.
23. Adamchuk N.G. Mejdunarodnaya praktika straxovaniya jizni. Uchebnoe posobie.- M.: ANKIL, 2009 g.
24. Anikin P.V., Rusetskaya e.A. Uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.: Finansi i statistika, 2008g.
25. Malkova O.V. Straxovanie v sisteme mejdunarodnix ekonomicheskix otnosheniy. Uchebnoe posobie dlya ekonomicheskix spetsialnostey. - M.: Feniks, 2009g.
26. Kuznetsova I.A. Straxovanie jizni i imushchestva grajdan. Prakticheskoe posobie. - M.: Dashkov i K., 2009.
27. Dyujikov E.F., Spletuxov YU.A. Straxovanie. Uchebnoe posobie. - M.: Infra-M., 2009g.
28. Ivashenko A.G. Straxovanie. Uchebnoe posobie. - M.: KnoRus, 2009g.
29. Samarov E.K. Straxovaya matematika: prakticheskiy kurs. Uchebnoe posobie. - M.: Alfa, 2009 g.

30. Veselovskiy M.YA. Straxovoy servis. Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov - M.: Alfa, 2009 g.
31. SHixov A.K. Straxovoe pravo (per.). 6-e izdanie. Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov - M.: YUrisprudentsiya, 2009 g.
32. Pimenva e.N. Straxovoe pravo.Uchebnoe posobie.- M.:Forum,2009 g.
33. Igoshin N.A. Straxovoe pravo. Uchebnoe posobie.-M.:YUniti.2010 g.
34. Ermasov S.V. Straxovanie. Uchebnik. 3–e izdanie, pererab. i dop - M.: YUrayt, 2010g.
35. Xudiyakov A.I. Teoriya straxovaniya, M.: Status, 2010 g.
36. Nikulina N.N.Straxovoy menedjment.Uchebnoe posobie.YUNITI, 2011.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlari va hisobotlar

- 43 Baymuratov T.M. O'zbekistonda sug'urta faoliyati va uni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2004.
- 44 Nurullaev A.S. O'zbekistonda fermer va dexqon xo'jaliklari faoliyatini sug'urtalash. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.: 2007.
- 45 Shennaev X.M. "Milliy iqtisodiyot o'sishini rag'batlantirishda sug'urtaning roli". "O'zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish mexanizmlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. TDIU. 2008 yil 6 aprel.-T.: TDIU, aprel 2008 y.
- 46 Tezisi i dokladi mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii na temu: «Transformatsiya ekonomicheskix otnosheniy v usloviyax preodoleniya posledstviy finansovo-ekonomicheskogo krizisa», Moskva.2010g.
- 47 "Yosh olimlar va talabalar tadqiqotlarida soliq tizimini isloh qilishning ilmiy asoslari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. Soliq akademiyasi, 2012 yil 27 aprel

48 “Iqtisodiyot nazariyasi muammolari: talqini va yechimlari” mavzusidagi Respublika Oliy o’quv yurtlararo ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent moliya instituti, 2013 yil 17 may.

49 Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag‘batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo‘llari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to‘plami. Toshkent-2014.

50 O‘zbekiston milliy sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyalari, muammolari va echimlari. Oliy o’quv yurtlararo ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari to‘plami. Toshkent-2015 yil.

51 O‘zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg‘or xorij tajribasidan foydalanish. Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari to‘plami. Toshkent-2015 yil.

IV.Internet saytlari

- <http://www.allinsurance.ru>
- www.sigma.com.
- www.UzReport.com.